INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

# MAMLAKATNING MINERAL-XOMASHYO VA ENERGETIKA TIZIMIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

**Butayeva Gulchehra Rustamovna**
Namangan davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: **R.Ahmedov**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mamlakatning mineral-xomashyo va energetika tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Mineral resurslarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, ularni qazib olish, qayta ishlash va samarali boshqarish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, energetika tizimining barqaror ishlashi, energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** mineral-xomashyo resurslari, energetika tizimi, iqtisodiy xavfsizlik, ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish, qayta ishlash sanoati, energetik mustaqillik

Mineral- xomashyo resurslari har bir mamlakatning eng muhim boylik manbaidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning turli ehtiyojini qondiradi. Mineral-xomashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, ximikatlar, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Yer ostidagi mineral hosilalar qidirilmagan va baholanmagan bo'lsa, u holda ular mineral xomashyo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, holbuki ularni aniqlashga va qidirishga mehnat sarflanadi. Ammo yer ostidagi bunday mineral xomashyo zaxiralari potensial resurslar hisoblanadi, xolos. Ular yer qa'ridan qazib olingandan keyingina haqiqiy mineral xomashyo hisoblanadi. Mineral xomashyo tushunchasi foydali qazilma tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir1.

Yer qa'ridan qazib olingan, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar mineral xomashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi2.

Foydali qazilmalar guruhiga ma'danli va ma'dansiz metallar, neft, gaz, ko'mir, torf va yer osti suvlari kiradi. Ular insoniyat uchun yoqilg'i va energiya manbalari hisoblanadi. Ulardan foydalanish yildan-yilga ortib bormoqda. Texnika bilan qurollanganlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, foydali qazilmalar assortimenti shunchalik ko'p bo'ladi va mineral xomashyoning ko'plab yangi turlari sanoat ishlab chiqarishiga jalb etiladi. Masalan, sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan toshko'mirdan faqat XVII asr oxiridan, neftdan XIX asr o'rtalaridan, alyuminiy, magniy, xrom va nodir elementlar ma'danlaridan va kaliyli tuzlardan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan, uranli ma'danlardan esa XX asr o'rtalaridan boshlab foydali qazilma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Odatda, foydali qazilmalar zaxiralari va prognoz qilingan resurslar miqdoriy jihatdan baholanadi. Dunyo va ayrim mamlakatlar mineralxomashyo balansida, har bir foydali qazilma turi, zaxiralarining 70-80% dan ortig'i yirik va juda katta konlar hisobiga to'g'ri keladi, qolganlari o'rtacha kattalikdagi va ko'plab mayda konlarga jamlangan. Umuman qidirib

1 Л.П.Кобахидзе «Экономика геологоразведочной отрасли. Москва. Недра. 1990.

2 A.E.Ishmuhamedov, M.R.Rahimova "Mintaqaviy iqtisodiyot". Toshkent.iqtisodiyot.2010

topilgan foydali qazilmalarning talaygina qismi ma'dan miqdoriga nisbatan oz bo'lgan, yoki katta chuqurlikda va murakkab tog'- geologik sharoitlarda joylashgan konlarda jamlangan.

Mineral resurslarni sanoat yo'sinida o'zlashtirish ularni baholashga, ilmiy- tadqiqot, izlash va geologik qidiruv ishlari va hajmiga, sanoatning o'ziga xos xususiyatlariga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xo'jalik mineral- xomashyo sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi roli bilan belgilanadi, hamda qazib chiqarish, boyitish va qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Mineral resurslarning qaytadan tiklanmasligi, ulardan oqilona foydalanish zarurati, qazib chiqarish, qayta ishlash va tashishda isrof bo'lishini qisqartirish, shuningdek ikkilamchi xomashyo sifatida ishlatish va mineral resurslardan foydalanishda ekologik iqtisodiy yondoshuvga rioya qilish lozimligi bilan izohlanadi3.

Mineral-xomashyo resurslariga bo'lgan ehtiyoj iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga nisbatan jadal ortib bormoqda. Bu asosan ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish, uning energetik va texnikaviy qurollanganlik darajasini oshirish uchun ko'p miqdorda tabiiy resurslar zarurligi bilan izohlanadi.

Mineral-xomashyo resurslari rolining ortib borishi ularga nisbatan ehtiyojning o'sishi bilangina emas, balki ularning o'ziga xos xususiyatlari va mehnat unumdorligiga ta'siri bilan shartlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni rivojlantirish sur'atlari va darajasi ko'p jihatdan foydali qazilmalardan foydalanish samadorligi ko'lamlari va darajasiga bog'liqdir4.

Ma'lumki, mineral-xomashyo resurslari ham ichki, ham tashqi bozorning iste'mol obekti hisoblanadi.

Shu tufayli, tog'- kon sanoati ishlab chiqarayotgan mahsulotlar milliy iqtisodiyotning quyidagi muammolarini yechishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim:

- xalq xo'jaligi talabini an'anaviy turdagi mineral-xomashyolar bilan to'liq ta'minlash;
- tashqaridan kirib kelayotgan mineral-xomashyolar o'rnini to'ldirish;
- milliy xo'jalikning yangi sohalarini xomashyo bilan ta'minlash;
- ekologik vaziyatni (kimyoviy o'g'itlarni tabiiy o'g'itlarga almashtirish) va sanitar-gigiyenik vaziyatni (yod, brom, shifobaxsh minerallar) yaxshilanishini tashkil etish; • tashqi bozorni o'zlashtirish va ijobiy savdo balansini tashkil etish. Hozirgi paytda dunyo miqiyosida yiliga 150 mlrd tonna mineral xom-ashyo qazib olinmoqda. Tabiiy nurash oqibatida dengiz va okeanlarga daryolar orqali yiliga 15 mlrd tonna tog' jinslari oqib qo'shilmoqda va 3-4 mlrd tonna tog' jinslari atmosfera havosiga ko'tarilmoqda. Inson o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yiliga 1500-2000 mlrd tonna tog' jinslarini bir joydan ikkinchi joyga ko'chiradi.

BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) ning ma'lumotlariga qaraganda, yiliga dunyoda 2,6 mlrd tonna neft, 3,6 mlrd tonna xrom ma'dani, 3-4 mlrd tonna qo'rg'oshin ma'dani, 6 mlrd tonna temir ma'dani, 7,3 mlrd tonna mis ma'dani, 32 mlrd tonna ko'mir, 1,2 mln tonna uran, simob, molibden, nikel, kumush, oltin va platina ma'danlari, 120 mln. tonna fosfatlar va 159 mln tonna tuz qazib olinmoqda. So'nggi 25 yil mobaynida dunyoda ko'mirga bo'lgan talab 2 marotaba, kaliy, marganets va fosfor tuzlariga 2-3 marotaba, temirga 3 marotaba, neft va gazga 6 marotaba oshgan bo'lsa, shu davr mobaynida aholining o'sishi 40% ni tashkil etdi. Agar qazilma boyliklardan hozirgi tezlik bilan foydalanilsa, oltin zaxiralari 35 yilda, rux-36 yilda, kaliy-40 yilda, uran 47 yilda, mis-66 yilda, surma va simob zaxiralari 70 yilda neft, gaz va ko'mir zaxiralari esa 150 yilda tugab qolishi mumkin. Shuning uchun ko'pgina rivojlangan mamlakatlar (Yaponiya, Angliya, Olmoniya, Italiya, Gollandiya, Belgiya, Xitoy va boshqa

3 Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. – Toshkent: O‗zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.- 731 bet.

4 A.E.Ishmuhamedov, M.R.Rahimova "Mintaqaviy iqtisodiyot". Toshkent.iqtisodiyot.2010

mamlakatlar)da xom-ashyo va yer osti boyliklarining yetishmasligi tufayli ikkilamchi chiqindilarni qayta ishlab, boshqa mamlakatlarning boyliklaridan foydalanmoqdalar5.

Jahon bozorining o‘zgargan sharoitlari O‘zbekiston Respublikasi mineral xomashyo negizini ham qayta taqsimlash muammosini ilgari surmoqda. Buning uchun barcha toifadagi sanoat zaxiralari va prognoz qilingan resurslarni qisqa muddat ichida geologik-iqtisodiy baholanishi amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda Mendeleyev davriy jadvalining deyarli barcha elementlari topilgan.

Hozirda O‘zbekistonda 2025 tadan ortiq konlar mavjud. Jumladan, qurilish materiallari bo‘yicha 867 ta, yer osti suvlarining 649 ta, uglevodorodlar (neft, gaz, kondensat) ning 244 ta, qimmatbaho metallar (oltin, kumush)ning 97 ta, rangli va nodir metallarning 12 ta, radioaktiv metallarning 38 ta, kon xomashyolarining 37 ta, kon-kimyoning 32 ta, qimmatbaho toshlarning 30 ta, ko‘mir va neft slanetsining 7 ta, qora metallarning 5 ta resursi qayd etilgan va qidirib chamalangan. Ba’zi foydali qazilmalar (oltin, uran, mis, fosforitlar, molibden va boshqalar) zaxiralari bo‘yicha O‘zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiradi.

Respublikamizning umumiy mineral-xomashyo salohiyati taxminan 3,5 trillion dollarni tashkil qiladi. Ishlatish uchun tayyorlab qo‘yilgan foydali qazilmalar zaxiralari 1025 mlrd. AQSH dollariga baholanmoqda. Shuni qayd qilish kerakki, respublikada nisbatan qisqa muddat ichida 200 mlrd. dollar miqdorida xomashyo qazib olindi. Nufuzli xalqaro konsalting kompaniyalaridan biri — BCG (Boston Consulting Group) 4 hisob- kitoblariga ko‘ra, keyingi o‘n yil ichida mamlakatning investitsiyaviy salohiyati 65 milliard AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Shundan 45 milliard dollardan ortig’i xomashyo sanoati hissasiga to‘g’ri keladi. Tayyorlab qo‘yilgan zaxiralar negizida respublikada 535 ta kon, shaxta, karyer, neft-gaz konlari, 420 ta suv olish joylari, balneologik shifoxonalar, shifobaxsh suvlarni quyish shoxobchalari ishlab turibdi.

O‘zlashtirishga tayyorlab qo‘yilgan mineral-xomashyo zaxiralari nafaqat ishlab turgan kon qazib chiqarish majmualarining uzoq muddatli istiqbolini ta’minlaydi, balki ularning quvvatini oshirish, eng muhim foydali qazilmalar (oltin, uran, mis, qo‘rg’oshin, rux, kumush, litiy, fosforitlar, kaliy tuzlari, flyuorit, kvarts-dala-shpat, agrokimyoviy ma’danlar va boshqalar) qazib olishni qaytadan tashkil etish imkonini ham beradi.

Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 mlrd. dollar miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular o‘rniga 6-7 mlrd. dollarlik yangi zaxiralar qo‘shilmoqda. Mamlakatimizda Navoiy konmetallurgiya kombinatining oltin ma’danli xomashyo bazasi G’arbiy O‘zbekistondagi 20 ga yaqin konlardan iborat. Ushbu konlarning umumiy ma’dan zaxirasi 2,12 milliard tonnani tashkil etadi. Ularning ishlab chiqarishda maqsadga muvofiqligi, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan tasdiqlangan amalda foydalanilayotgan zaxiralari 1,99 milliard tonnani tashkil etadi. Qolgan qismi hozirgi vaqtda istiqbolli zaxiralar toifasiga kiritilgan.

Ushbu zaxiralarni sanoat o‘zlashtirilishiga jalb qilish puxta texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishni talab qiladi. Mamlakat mineral-xomashyo bazasini mustahkamlashda ulardan samarali va oqilona foydalanish lozim. Qayta ishlash sanoatida esa mahsulotni qayta ishlash darajasining takomillashuvi - qazib olish sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlashga asos bo‘ladi.

Istiqbolda mintaqada mineral-xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnika va texnologiyani maqbul boshqarish, respublika iqtisodiyotidagi muammolarni aniq belgilab, ularni hal qilishning samarali yo‘llarini izlab topishni taqozo qiladi.

5 www.stat.uz .

Bu esa katta mablag' talab etuvchi geologiya-qidiruv ishlari, tog'- kon sanoatini rivojlantirish kabi iqtisodiyotdagi muhim vazifalarning qay darajada hal etilishiga bog'liq.

Mamlakatimiz sanoati tarkibida qazib olish sanoati hissasining o'sishi oltin, gaz, neft qazib chiqarish sanoatlarida ishlab chiqarish jarayonining kengayishida o'z ifodasini topmoqda. Shu bilan birga qayta ishlash sanoatida mahsulotni qayta ishlash darajasining takomillashuvi - qazib olish sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashga asos bo'ladi. Shu maqsadda Respublikada "2022-2026 yillarda geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan bo'lib, umumiy qiymati 182 million dollarlik 14 loyiha shakllantirilgan. Bu dasturga muvofiq 8 ta yangi kon va 18 ta istiqbolli maydon hisobiga uran zaxirasini oshirish, zamonaviy burg'ulash uskunalarini olib kelish, raqamli geologiya modelini yaratish ko'zda tutiladi. Unga ko'ra, O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi huzurida "Yangi kon" loyiha ofisi tashkil etish uchun uning ustav kapitaliga 15 million dollar ajratilgan. Bu loyiha ofisi litiy, alyuminiy, magniy, grafit va boshqa nodir metallarni ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda6.

Mamlakatning mineral-xomashyo va energetika tizimida xavfsizlikni ta'minlash masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiiy resurslar har qanday davlat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ularni noto'g'ri boshqarish yoki haddan tashqari ekspluatatsiya qilish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Mineral-xomashyo resurslari iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar mamlakat iqtisodiyoti asosan xomashyo eksportiga tayanib qolsa, jahon bozoridagi narxlarning o'zgarishi unga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qiladi.

Energetika tizimida xavfsizlikni ta'minlash ham alohida ahamiyatga ega. Energiya manbalarining uzluksizligi va yetarliligi mamlakat sanoati va aholisi uchun zarur shartdir. Yoqilg'i resurslariga haddan tashqari bog'liqlik kelajakda muammolar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi7.

Ekologik xavfsizlik masalasi ham mineral-xomashyo va energetika tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Tog'-kon sanoati va yoqilg'i-energetika tarmoqlari atrof-muhitga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Yerning degradatsiyasi, suv va havoning ifloslanishi kabi muammolar inson salomatligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Shu bois ekologik talablarni kuchaytirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, zamonaviy ekologik toza texnologiyalarni joriy etish zarur.

Texnologik va sanoat xavfsizligi ham muhim o'rin tutadi. Konchilik va energetika sohalarida ishlab chiqarish jarayonlari yuqori xavf bilan bog'liq. Texnika va uskunalarning eskirishi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasligi turli avariyalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, mehnat muhofazasi talablariga qat'iy amal qilish va malakali kadrlar tayyorlash zarur.

---

6 Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023
https://www.oriens.uz/media/journalarticles/103_Qosimova_Nodira_Saidovna_639-648.pdf

7 www.mineral.uz

**ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026**
**https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge**
***Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.***
***https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG***
**https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge**
**https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X**

Bundan tashqari, mineral resurslardan oqilona foydalanish ham xavfsizlikning muhim shartidir. Chunki bu resurslar qayta tiklanmaydi. Ularni tejab-tergab ishlatish, qazib olish jarayonida yo‘qotishlarni kamaytirish va ikkilamchi xomashyodan foydalanish kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mineral-xomashyo va energetika tizimida xavfsizlikni ta’minlash kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ekologik muvozanatni saqlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Faqat shu yo‘l bilan mamlakatning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishiga erishish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Кобахидзе Л.П. Экономика геологоразведочной отрасли. Москва: Недра, 1990.
2. Ishmuhamedov A.E., Rahimova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent: Iqtisodiyot, 2010.
3. Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. Iqtisodiy xavfsizlik. Darslik. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022.
4. Ishmuhamedov A.E., Rahimova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot. Toshkent: Iqtisodiyot, 2010.
5. www.stat.uz
6. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/103_Qosimova_Nodira_Saidovna_639-648.pdf
7. www.mineral.uz